UDK 316.356.2:316.74

ARAB OILALARIDA GENDER ROLLARI VA QADRIYATLAR TIZIMI

Arzumetova Zarifa Sayfiddinovna,
mustaqil tadqiqotchi

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) — arab mamlakatlari orasida oila institutiga alohida e’tibor qaratiladigan davlatlardan biridir. Arab jamiyatida oila muqaddas hisoblanadi, uning diniy, madaniy va huquqiy asoslari tarixiy jarayonlarda shakllanib, zamonaviy huquqiy tizim bilan uyg‘unlashgan holda faoliyat yuritadi. Mamlakatda oilaning ijtimoiy asoslari diniy va an’anaviy qadriyatlarga bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, u jamiyatning asosiy tayanch instituti sifatida qabul qilinadi. Arab mentalitetida oila nafaqat shaxsiy hayotning markazi, balki jamiyatda barqarorlik va tartib asosidir. Oilaning barqarorligi butun jamiyatdagi mustahkamlik, qonunbuzarlikning past darajasi va iqtisodiy o‘sish bilan chambarchas bog‘liq.

BAA jadal iqtisodiy taraqqiyotga erishgan holda, an’anaviy islomiy qadriyatlarga tayangan jamiyat sifatida o‘zining madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini asrab qolmoqda. Amirliklarda oila — jamiyatning asosiy instituti bo‘lib, u diniy, ijtimoiy va madaniy jihatdan katta ahamiyatga ega. Oila faqat shaxsiy munosabatlar majmuasi emas, balki ijtimoiy barqarorlik va shaxs tarbiyasining asosi hisoblanadi.

Islom dini BAA jamiyatidagi barcha ijtimoiy munosabatlarni, xususan, oila qurish va uni saqlashga oid qoidalarni belgilab beradi. Oilaviy hayot Qur’on va Sunnat asosida tashkil etilgan bo‘lib, har bir a’zo o‘z burch va mas’uliyatini biladi. Ayol kishi oilada hurmatga ega bo‘lib, bolalar tarbiyasi, uy-ro‘zg‘or va ma’naviy muhitni saqlash uning asosiy vazifalaridandir.

BAAda nikoh faqat shaxsiy qaror emas, balki oilaviy kelishuv natijasida amalga oshadi. Nikohdan oldingi muhokamalarda ikki oila o‘rtasidagi munosabatlar, qudalik, moliyaviy holat va diniy moslik kabi omillar ko‘rib chiqiladi. Nikoh shartnomasi imom yoki notarius huzurida tuziladi va uni ikki guvoh tasdiqlaydi. Bu shartnomada mahr, ya’ni erkak tomonidan ayolga beriluvchi moliyaviy sovg‘a ko‘rsatiladi.

Ayol o‘ziga ma’qul kelmagan turmush qurish taklifini rad etish huquqiga ega. Bu, ayniqsa, zamonaviy BAAda huquqiy jihatdan kafolatlangan. Biroq, an’analarga ko‘ra, turmush qurish haqidagi so‘nggi qaror ko‘pincha ota-ona va qarindoshlar bilan maslahatlashilgandan so‘ng qabul qilinadi.

Nikoh shartnomasi imzolangandan so‘ng, ko‘pincha nikoh marosimini o‘tkazish ko‘p ortga surilmaydi. Biroq, to‘y bo‘lgunicha, kuyov kelinni faqat qarindoshlari ishtirokidagina ko‘rishi mumkin. BAAda oilaviy munosabatlar tegishli qonun asosida tartibga solinadi. Nikoh islomiy shartlarga muvofiq amalga oshiriladi. Nikohda erkak

va ayolning roziligi, mahr (ko‘pincha pul yoki qimmatbaho buyum, taqinchoq, mol-mulk), guvohlar ishtiroki talab etiladi.

To‘y marosimlari keng miqyosda nishonlanadi va ko‘p hollarda haftaning bir necha kuni davom etadi. Sunnatga muvofiq, erkaklar va ayollar uchun alohida tantanalar tashkil etiladi. Marosimda mehmonlar uchun hashamatli taomlar taklif qilinadi, bu esa kelin-kuyovning ijtimoiy maqomi va oilasining saxiyligini ko‘rsatadi. Tadbir, tantanalarda spirtli ichimliklar taqiqlangan bo‘lib, ammo qahva va xurmo asosiy taklif etiladigan mahsulotlardir.

BAAda ayollar oilada katta hurmatga ega. Ularning huquqlari shariat va davlat qonunchiligi bilan himoyalangan. Keyingi yillarda Amirliklarda ayollar oliy ta’lim olish, ilm-fan, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish va davlat xizmatiga kirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shu bilan birga, ko‘pchilik xotin-qizlar nikohdan so‘ng, agar ular turmush o‘rtog‘ining topish-tutishi imkon bersa, ishlamaslikni ma’qul ko‘radilar.

Arab oilasida ayol kamsitiladi, degan stereotip ham mavjud, ammo bu fikr asosga ega emas. Muhim qarorlarni qabul qilishda ayol o‘z fikrini bildirish huquqiga egadir. Arab erkagi uchun bir necha xotinga ega bo‘lish oson emas, chunki har bir xotin uchun alohida uy qurish, ularni bir-biridan kam qilmay, ta’minlab qo‘yish kerak. Ko‘pincha, BAAda erkak faqat bir xotinga ega bo‘ladi va oila ancha sekulyar (dunyoviy) turmush tarziga xos hayot kechiradi. Islomda to‘rtta ayolgacha uylanish ruxsat etilgan bo‘lsa-da, bu amaliyot BAAda keng tarqalmagan. Moliyaviy mas’uliyat, har bir xotinga alohida uy-joy, teng moliyaviy ta’minlash talablari ko‘pxotinlikni cheklab qo‘yadi. Ko‘pincha bu amaliyot boy shayxlar va yuqori maqomga ega insonlar hayotida uchraydi.

Taloq va ajrashish. Taloq islomiy qonunlar asosida amalga oshiriladi, ammo ayol uchun ham sud orqali ajrashish imkoniyati bor. Sud bola tarbiyasi, moddiy ta’minot, vasiylik va boshqa masalalarni hal qiladi. Nikoh paytida mahrni berish majburiy hisoblanadi. Ajrashgan holatda ayolga nafaqa va farzandlar uchun ta’minot belgilanadi. Vasiylik aksar hollarda onaga beriladi, ammo otaning moliyaviy mas’uliyati saqlanadi.

Ta’kidlanganidek, ajralish BAAda islomiy qonunlar asosida amalga oshiriladi. Erkak bir tomonlama “taloq” deyish orqali nikohni bekor qilishi mumkin, biroq davlat sudlari bu jarayonni ham tartibga solgan. Ayol ham ayrim hollarda — erining ta’minotsizligi, jismoniy zo‘ravonlik yoki u bilan yashashning imkonsizligi kabi holatlarda — sudga murojaat etib ajralish huquqiga ega. Bu “fash an-nikoh” deb ataladi. “Xulu’” esa ayol tashabbusiga ko‘ra nikohni bekor qilish bo‘lib, bunda erning roziligi talab etiladi va bu holda ayol mahrdan voz kechadi.

BAA jamiyatida oila qadriyatlar markazida turadi. Diniy, madaniy va ijtimoiy jihatdan ayolning roli yuqori baholanadi. Urf-odat va an’analar globallashuv bosimi ostida ayrim o‘zgarishlarga uchrayotgan bo‘lsa-da, oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy intizom o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shu bois BAA tajribasi zamonaviylik va an’ananing muvozanatli uyg‘unligi namunasi sifatida o‘rganishga arziydi.

Arab oilasi, arab ayollari haqida gap ketganda, ko‘pincha stereotiplar ta’sirida harakat, haram va unda burqaga o‘ralgan ayollar tasavvur qilinadi. Ammo mahalliy oilalarning turmush tarzi va an’analariga diqqat bilan nazar tashlansa, bu tasavvur xato ekaniga ishonch hosil qilish mumkin.

Amirliklar qonunchiligi va siyosatining asosi islom dini hisoblanadi. Oila uchun asosiy qonun – bu Qur’on qonunlari va taqiqlariga asoslangan shariatdir. Tarixiy jihatdan arablar ko‘chmanchi qabilalar tarzida yashagan, klanlarga bo‘lingan, shuning uchun ular uchun oilaviy va qarindoshlik aloqalari muqaddas hisoblanadi.

Amirlik hukumati dinlararo bag‘rikenglik, tolerantlikni namoyon etib, boshqa dinlarga ham ruxsat bergan bo‘lsa-da, aholining deyarli 100 foizi islom diniga e’tiqod qiladi.

Musulmon oilalarda qiz farzandli bo‘lish foydalidir, chunki kuyov tomoni kelin tomoniga “qalin” to‘lashi kerak, bu miqdori anchagina katta mablag‘ni tashkil etishi mumkin.

Arab an’analarida bir necha avlod vakillari yashaydigan oila asosiy rol o‘ynaydi. Bu modelda bir necha avlod vakillari bir xonadonda yoki yaqin joylashgan uylarda yashab, o‘zaro yordam va maslahat asosida hayot kechiradilar. Ota-ona, bobo-momo, farzandlar va hatto amaki, tog‘a kabi yaqin qarindoshlar hayotda muhim qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi. Bu turdagi munosabatlar oilaviy hamjihatlik va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantiradi.

Shuningdek, BAAda oilaning ijtimoiy funksiyalari orasida bolalarni tarbiyalash, ularga axloqiy, diniy va madaniy qadriyatlarni yetkazish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Musulmon oilalarida bolalarga Qur’oni karim, payg‘ambar hayoti va sunnatlari asosida ta’lim berish qadimdan hurmatli vazifa sifatida qaraladi.

Oilaning ijtimoiy rolini kuchaytirish maqsadida BAA hukumati turli ijtimoiy dasturlar, oilaviy maslahat markazlari va nikohdan oldingi maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘ygan. Ushbu xizmatlar orqali oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ajrimlarni kamaytirish, bolalar huquqlarini himoya qilish va ona-bola salomatligini yaxshilash maqsad qilingan.

Qayd etish joizki, BAAdagi oilaning ijtimoiy ahamiyati nafaqat diniy asoslarda, balki davlatning faol ijtimoiy siyosatida ham o‘z ifodasini topgan. Shu bois, oila – jamiyatni barqaror, sog‘lom va ma’naviy jihatdan mukammal holda saqlab turishda hal qiluvchi institut hisoblanadi.

BAAda ham oilaga jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida qaraladi. Er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar mehr, rahm-shafqat va o‘zaro hurmatga asoslanishi kerak. Farzand tarbiyasi — ota-onaning muqaddas burchi hisoblanib, tarbiyada oilaviy an’analarga, ota-bobolarga hurmat, keksa avlod vakillarining qarorlariga itoat qilishga katta e’tibor qaratiladi.

G‘ayridin, musulmon bo‘lmagan fuqarolar o‘z mamlakati qonunlariga asoslangan ravishda nikoh va ajrashishni amalga oshirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, BAAda oila nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, diniy va madaniy jihatdan ham davlat siyosatida markaziy o‘rin tutadi. Islom qoidalari asosida insonlar, ayniqsa, er-xotin, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar mustahkamlanadi. Davlat qonunlari va sud tizimi esa bu munosabatlarning huquqiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdusamatov H.U. Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Avtoref. diss. ... psixol. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD). – Toshkent, 2019. – 21 b.;
2. Niyozmetova G. O‘zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Avtoref. diss. ... psixol. fan. nomz. – Toshkent, 2010. – 24 b.;
3. Rasuleva N.Z. Qayta nikohga kirish motivatsiyasining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari. Avtoref. diss. ... psixol. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD). – Toshkent, 2020. – 21 b.;
4. Saidov A.I. Oilada yoshlarning sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Avtoref. diss. ... psixol. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD). – Toshkent, 2022. – 24 b.;
5. Qodirov U.D. Konsagvin nikohning ijtimoiy-psixologik sabablari va oqibatlari. “Fan va ta’lim yangiliklari” jurnali, 2026-yil 5-son, 8–16-betlar.